

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXX sessiyasi bo'lib o'tdi



Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXX sessiyasi bo'lib o'tdi
Sessiyada Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari, shahar hokimi, sektor
rahbarlari, hokim o'rgebnosarlari, tashkilot-korxona rahbarlari va OAV vakillari ishtirok
etishdi.

Sessiya kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan Xalq deputatlari Termiz shahar
Kengashi deputati D.Normuradovning Termiz shahrida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan
yoshlarning bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar hamda Termiz
shahrida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni "Yoshlar daftari"dan chiqarish
bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida
ajratilgan imtiyozli kreditlardan maqsadli foydalanishni o'rganish maqsadida tuzilgan
xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlaridan iborat Ishchi guruhlari o'rganish
ishlarining yakunlari tahlili to'g'risida ma'ruzasi tinglandi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala Termiz shahar hokimi I.Xudoyberdievning shahardagi 4

ta sektor rahbarlarining tavsiyasi asosida shahar hududida yashovchi nogiron, surunkali kasallikka chalingan, yakka-yolg'iz keksa, bevalar va o'zgalar qaramog'iga muhtoj, 5 va undan ko'p farzandli, doimiy daromad manbaini yo'qotgan (shu jumladan, mehnat muhojirlari), eng asosiysi, haqiqatda ehtiyojmand, nochor va moddiy ko'makka muhtoj yangi oilalarni "Temir daftar"ga kiritilishi to'g'risida ma'ruzasi tinglandi.

Shuningdek, kun tartibidagi keyingi masalalar Termiz shahar "Tuproqqa'rg'on" mahallasi Umid ko'chasi yoqasida joylashgan 2 va 4 raqamli ikki qavatli turar-joy binosida yashovchi fuqarolarga tegishli bo'lган xonardonlarning kompensatsiya mablag'larini oldindan to'lab berish yoki uy-joy bilan ta'minlash sharti bilan buzib, o'rnidan ko'p qavatli turar-joy binosini qurish uchun "Xamidiy" xususiy firmasiga ruxsat berish, O'zbekiston Respublikasi "Suv va suvdan foydalanish" to'g'risidagi Qonunining Termiz shahridagi ijrosi, Termiz shahrida faoliyat yurituvchi quyi bo'g'in sndlari raislarining 2021 yilning 1-choragi davomida odil sudlovnii amalga oshirishdagi ish faoliyati to'g'risidagi axborotlari, Pandemiya davrida aholini va tadbirkorlik sub'ektlarini inqirozdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni yuzasidan Davlat soliq inspeksiysi Termiz shahar bo'limi boshlig'ining axboroti, Jinoyatlarning oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasi yuzasidan Termiz shahar ichki ishlarni bo'limi boshlig'ining 2021 yilning 1-choragi davomida amalga oshirilgan muayyan ishlarni to'g'risidagi hisoboti Termiz shahridagi tijorat banklari tomonidan 2021 yilning 1-choragi davomida tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash hamda imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha ko'rيلотган choralar samaradorligi hamda 2021 yilning 1-choragida ish bilan ta'minlash borasida Termiz shahrida olib borilgan ishlarning ahvoli to'g'risida shahar Bandlikka ko'maklashish markazi rahbari axboroti to'g'risida hisobotlari tinglanib, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi qarori qabul qilindi.